

Eshanova Zilola Qo'chqarovna,
Andijon davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
E-mail: zeshanova79@gmail.com

UO'K:821.512.133

USMON AZIM IJODIDA "BAXSHIYONA" TURKUMI

Annotatsiya: maqolada Usmon Azim ijodidagi "Baxshiyona" turkumi xalq dostonlari va xalq termalari stilizatsiyalari asosida yaratilgan asarlardan iborat universal badiiy yaxlitliklik ekanligi asoslangan. Shuningdek, unda "Baxshiyona" turkumidagi asarlar xalq dostonlari kompozitsiyasiga xos ayrim xususiyatlarni saqlagan holda bu janr modelining o'ziga xosliklarini modifikatsiyalash asosida yaratilganligi dalillangan hamda xalq dostonlari stilizatsiyasi jarayonidagi modifikatsiyalar baxshiyonalar tahlili orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: baxshiyona, baxshi obrazi, universal badiiy yaxlitlik, turkum, folklor stilizatsiyasi, modifikatsiya, uslub, sa'j, g'oya,

Эшанова Зилола Кучкаровна,
докторант Андигжанского государственного университета,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент.
E-mail: zeshanova79@gmail.com

ЦИКЛ "БАШИЯНА" В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УСМАНА АЗИМА

Аннотация: в статье обоснован цикл «Бахшиёна» Усмана Азима представляет собой универсальное художественное единство, состоящее из произведений, созданных на основе стилизацией народного эпоса ва термы. Также доказано, что произведения цикла «Бахшиёна» создан на основе модификации особенностей модели этого жанра, сохранив при этом некоторые характерные черты композиции народного эпоса и освещен модификации в процессе стилизации народного эпоса через анализа бахшиёны.

Ключевые слова: бахшиёна, образ бахши, универсальная художественная целостность, цикл, фольклорная стилизация, модификация, стиль, садж, идея.

Eshanova Zilola Qochqarovna,
Doctoral student of Andijan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor.
E-mail: zeshanova79@gmail.com

THE CYCLE OF "BAHSHIYANA" IN THE WORKS OF USMAN AZIM

Annotation: the article based that Usman Azim's cycle "Bakhshiyona" is a universal artistic integrity consisting of works created on the basis of stylization of folk epics and terma's. It is also been proven that the works of the "Bakhshiyona" cycle are created on the basis of modification of the features of this genre model

while preserving some features characteristic of the composition of the folk epic and also illuminated are that the modifications of the process in stylizing the folk epic through the analysis of bakhshiyona`s.

Keywords: *bakhshiyona, image of bakhshi, universal artistic integrity, cycle, folklore stylization, modification, style, prose rhyme, idea.*

Kirish

Xalq og‘zaki ijodi an‘analari sintezi asosidagi asarlarni o‘rganish adabiyoshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, bunday asarlar sirasiga baxshiyonalar kiradi. “Baxshiyona” turkumining mukammal namunasi Usmon Azim ijodida uchraydi. N.Shukurov:”Usmon Azim she‘rlarida xalq og‘zaki ijodi hamda V.Mayakovskiy, G‘.G‘ulom kabi kuchli publitsistik shoirlar an‘anasini sintezlashtirib, yangicha bir uslubga intilish tendensiyasi ko‘zga tashlanadi”[4,112] deydi. Usmon Azimning xalq og‘zaki ijodi an‘analari sinteziga xos uslubining shakllanishi uning yoshligidan (Surxondaryoning Boysunida) xalq baxshilari ijodidan bahramand bo‘lganligi, ular bilan bevosita muloqot qilganligi bilan belgilanadi. Ijodkor biografiyasiga xos bo‘lgan ushbu omil uning ijodida baxshi obrazi asosida yaratilgan va baxshilarga bag‘ishlab yozilgan she‘rlar hamda “Baxshiyona” turkumidagi asarlarning yaratilishiga zamin bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu turkum haqida so‘z yuritar ekan J.Suvonova baxshiyona she‘rni o‘zbek yozma she‘riyatiga birinchi bo‘lib Mirtemir olib kirgani, 70-yillarga kelib esa baxshiyona ohanglar Usmon Azim she‘riyatida yangi bir ko‘rinishda zuhur topganligini ta’kidlaydi va “... o‘zbek adabiyotida xalqona ohanglarga asoslangan yangi bir janrning paydo bo‘lganini ham namoyish etdi”[5,49] - deydi. D.Xoliqova esa “xalq dostonlari yo‘lida she‘r yaratish”, “Usmon Azimning “Oqbotir va Qorabotir” she‘riy dostoni ham xalq ertak va dostonlaridan ta’sirlanish, qolaversa, shoirning ijodiy fantaziyasi asosida yangicha she‘r namunasi sifatida yaratilgan” [8,71-73] kabi fikrlarni beradi va “Baxshiyona” turkumidagi asarlarni yangicha she‘r, she‘riy doston istilohlari bilan ataydi. Har ikki olim ta’kidlaganidek, ushbu turkumdagi asarlar xalq og‘zaki ijodi an‘analari ta’sirida yaratilgan va unda xalqona tasvirlar keng istefoda etilgan. Biroq “Baxshiyona” turkumidagi asarlarni she‘r

deyish u qadar to'g'ri emas. Sababi unda lirik kechinma tasviridan ko'ra xalq dostonlari asosidagi epik voqelik talqini yetakchilik qiladi. Bizningcha, "Baxshiyona" turkumi xalq dostonlari va xalq termalari stilizatsiyalari asosida yaratilgan asarlardan iborat universal badiiy yaxlitlik.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada germeneytik, struktural tahlil metodlaridan foydalanilgan holda "Baxshiyona" turkumidagi asarlar tahlil qilindi hamda "Baxshiyona" turkumi xalq dostonlari va xalq termalari stilizatsiyalari asosida yaratilganligi asoslandi, xalq dostonlari stilizatsiyasi jarayonidagi modifikatsiyalar yoritildi.

Tahlillar va natijalar

Usmon Azim "Baxshiyona" turkumidagi asarlarni xalq dostonlari kompozitsiyasiga xos ayrim xususiyatlarni saqlagan holda bu janr modelining u yoki bu o'ziga xosliklarini modifikatsiyalash asosida yaratgan. Xalq dostonlari stilizatsiyasi jarayonidagi modifikatsiyalar quyidagilarda ko'rinadi.

"Baxshiyona" turkumidagi asarlarda Elbek baxshi bilan bog'liq voqealar va personajlar tasviri saj'li nasrda, personajlarning fikr va kechinmalari tasviri esa 8, 9, 11, 12 bo'g'inli barmoq vaznidagi misralar yoki to'rt, besh misrali bandlar orqali berilgan. "Baxshiyona" turkumidagi asarlarni undagi voqealar kechuvchi Asqartog', Boysun, Qo'ng'iroq, Farg'ona kabi makonlar va Elbek baxshi obrazi birlashtirib turadi. Asardagi xalq dostonlariga xos uzoq o'tmish voqeligi tasviri ijodkorning o'z davri ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq muammolarni yoritish, elning ma'naviy tarbiyasi orqali ozod yurtga ega bo'lish kabi g'oyaviy konsepsiyasini berishga xizmat qiladi.

Baxshi xalqning asrlar osha orzulari jamlangan xalq dostonlarini, ulardagi xalq qahramonlarining yovuzlikka qarshi kurashlarini kuylash orqali elni tarbiya qiluvchi, ularda yurtga muhabbat tuyg'ularini uyg'otuvchi shaxs bo'lib, u xalq dostonlarida faol ishtirok etmaydi. Baxshi obrazining tinglovchiga qisqa xalq hikoyalari va (bo'y)dostonlarini aytishi tasviri "Qo'rqut ota kitobi"da uchraydi. Ushbu asarda "Qo'rqut ota xalqning quvonchli va tashvishli kunlarida ko'rinadigan, ularga maslahat va madad beradigan obrazdir. Shunday xususiyati bilan u bizga turkiy

xalqlarning ilohiy maslahatchisi qiyofasidagi ulug‘ timsolni eslatadi...”[2] “Baxshiyonalar”dagi yetakchi obraz bo‘lgan baxshi Qo‘rqut ota obrazi bilan funksional jihatdan o‘xshash. Usmon Azim baxshi obrazidan yurtning kelajagi, uning taqdiri, adolat uchun kurash kabi g‘oyaviy konsepsiyalarini berishda ijodiy foydalanadi.

“Baxshiyona” turkumidagi asarlar syujeti xalq dostonlari syujeti, motivlari, obrazlari ta’sirida shakllangan bo‘lib, unda Elbek baxshi, Elomon baxshi, Shomurod baxshi, Qutbo‘ldi baxshi, Turmamat baxshi, Doniyor shoir, Mingqarchig‘ay shoir, el shoiri, yov shoiri, Xolmamat yasovul, Oqbotir, Qorabotir, podshoh, o‘ng qo‘l vazir, chap qo‘l vazir, Jondorbiy, Jonmurod jebachi, Quvvatboyvachcha, Usta Jonqobil, Oytuman, Guldona momo, Hayitgul momo, Gulsum kelin, Xonimgul, Mingsuluv, Gulhusn, Hulkar, Gulkesar kabi personajlar mavjud. “Baxshiyona” turkumining ilk qismidagi Elbek baxshi va uning shogirdi Elomon baxshi tilidan berilgan she’riy qismda ijodkorning vatanni sevish, uni ardoqlash kabi g‘oyaviy maqsadlari beriladi. Elbek baxshi tarbiyasini olgan Elomon baxshi ham tinglovchilar auditoriyasiga vatanni sevish haqidagi asarlarni kuylaydi. Elomon baxshi uchun vatan “qo‘shig‘i tarzi, yuragi mag‘zi, otasidan meros qolgan va bolasiga ozod holda yetkazishi kerak bo‘lgan qarzi”dir.

“Baxshiyona” turkumidagi asarlarga sarlavha qo‘yilmagan bo‘lsa-da, ularning har biri mustaqil mazmuniy-kompozitsion butunlik sifatida shakllangan. “Baxshiyona” turkumidagi Qaldirg‘ochoyimning akasi Alpomishga murojaati berilgan baxshiyona hamda Alpomish va uch oylik gumona bilan qolayotgan Barchinning savol-javobi tasvirlangan baxshiyona “Alpomish” dostoni syujeti epizodlari tasviri asosida shakllantirilgan. Barchinoyning:”Olti oy o‘tgan so‘ng kelmasang, Bolangga ne deyin, sultonim?” [6,134] deya berilgan savoliga Alpomish tilidan aytilgan “Bolamga, "Vatan" de ilk bora, Bolamning qoniga Oqiblar kirsin u yurakdan”, “ Elining otidir Qo‘ng‘irot, tug‘ilgan tuprog‘ing Boysin, de”, Barchinim, farzandim sher bo‘lsin, Yurtiga suyanchiq er bo‘lsin”[7,161] kabi so‘zlar orqali shoir vatan, uning muhabbati haqidagi g‘oyaviy qarashlarini o‘quvchiga yetkazadi. Shior

bilan bo'lgan suhbatda ham vatan so'zi farzandga ona suti bilan kirishi ta'kidlanadi [1].

Oltinchi baxshiyonada yovga bosh egmagan elni bosh egdirish uchun podshohning el baxshisiga o'zlarini maqtashini so'ragani bilan bog'liq voqelik tasviri roviy tilidan beriladi. Unda podshoh, o'ng qo'l vazir, chap qo'l vazir, yov shoiri va el shoiri bo'lgan Elbek baxshi kabi obrazlar mavjud. Usmon Azim el shoiri va yov shoiri munozarasi orqali yaqin o'tmishdagi bosqinchilar va ularning mustamlaka o'lkaga nisbatan mustamlakachilik siyosatiga ishora qiladi va yovni maqtamagan shoirlarning yo'q qilinishi, xalqning o'zligini yo'qotish orqali millat sifatida "izsiz g'oyib bo'lishi" haqidagi fikrlarini beradi.

Sakkizinchi baxshiyona "Nima aytay" termalari stilizatsiyasi asosida yaratilgan. Bizga ma'lumki, terma xalq og'zaki ijodining mustaqil janri bo'lib, lirik yoki epik xususiyatlarga ega. "Nima aytay" baxshilarning repertuar bayoni haqidagi an'anaviy terma bo'lib, u axborot berish, dostonlarga kirish vazifasiga hamda turli dostonlarning eng ahamiyatli jihatlarini aytish, doston qahramonlariga ta'rif berish orqali tinglovchilar auditoriyasini tayyorlash vazifasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Maishiy-didaktik termalarda esa "yaxshi yomonga qarama-qarshi qo'yilib"[3,270] tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar beriladi. Usmon Azim ayni shu maishiy-didaktik va baxshilar repertuar bayoni haqidagi termalarning mohiyatini sintezlashtirgan holda ushbu baxshiyonasini yaratadi. Shoir baxshiyonada bo'lar el va sho'rlik el farzandlariga xos holatlarni o'zaro qarama-qarshi qo'yish, qiyoslash orqali o'zining vatan, uning kelajagi uchun qayg'urish haqidagi g'oyalarini beradi. Vatanini sevgan o'g'lonlar tasviri baxshi tilidan shunday tasvirlanadi: "Oyoqlarin kesishsa ham yuradir, Tilin kesib tashlashsa ham "haq" deydi, Dushman ming bor o'ldirsa ham yashaydi, "Yo, xalqim...", deb jallodga jon topshirar" [6,136]. Asarda shunday farzandlari bor elgina doimo hur yashaydi, degan g'oya baxshi termalari stilizatsiyasi asosida beriladi. To'rt misrali 11 banddan iborat she'riy qismning juft bandlarida "Sho'rlik elning farzandlari"ning qiyofasi "Ikki ko'zi ochiq turib ko'r bo'lar, Yurtin eshakdayin minib kun ko'rar, Og'iz ochar faqat ovqat yemoqqa, O'zi

bilmay tiriklikda o'ladir, Elin so'yib yemoqqa ham tayyordir" [6,137] kabi tasvirlarda beriladi.

Elbek baxshining Guldona momo va Hayitgul momo allalari kuylangan baxshiyonada shoir ikki avlod o'rtasidagi tafovutni qiyoslash va alla janrini stilizatsiya qilish orqali o'zining vatan, uning dardida shoir (baxshi) bo'lishning hozirgi zamonda qanchalar og'ir yumushga aylanganini ta'kidlaydi. Usmon Azim Doniyor shoir va qiz sevgisi tasviri berilgan baxshiyonada Doniyor shoir kechinmalarini tasvirini berish orqali o'z davridagi shoirlarga ishora qiladi hamda mayda tashvishlar bilan o'ralashib qolgan shoirlar haqidagi armonlarini beradi. Elbek baxshining Shomurod baxshidan meros qolgan qo'shig'i berilgan baxshiyonada ham ushbu fikr rivojlantiriladi va Usmon Azim baxshi tilidan o'z davridagi mayda tashvishlarga o'ralashib qolgan shoirlarga so'zlaydi va ularni vatanni sevish, adolatsizlik uchun kurash kabi ezguliklarga chorlaydi, shuningdek, o'z davri muammolarini (so'z erkinligi, yurt ozodligi kabi) o'tmish voqeligi fonida beradi.

Usmon Azim ijodidagi "Qo'ng'iro't ayollarining qo'shiqlaridan" deb nomlangan asari ham "Baxshiyona" turkumiga kiradi. Yetti qismdan iborat bu baxshiyonada Elbek baxshining Oyyorug', Qorasoch, Norbibibi, Ko'nglioy momo, Mingsuluv, Mingchechak kabi Qo'ng'iro't ayollari qo'shiqlari, ularning sevgi iztiroblari, armonlari, kechinmalari ifodalanadi. Ushbu turkumda ham yetakchi obraz Elbek baxshi. U xalqiga, qishloqma-qishloq yurib, o'tovlarda ayollar dardi va armonlari berilgan qo'shiqlarni kuylaydi. Ushbu turkumdagi she'riy qismlar xalq qo'shiqlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan. Unda ishqiy kechinma tasviri berilgan o'ynoqi ohang 7 bo'g'inli, sevgi armonlari berilgan hazin ohang esa 10,11,12 bo'g'inli misralarda beriladi. Usmon Azim Mingchechak qiz qo'shig'ida: "Voy, jonim! Voy, jonim! Voy, jonim!/Kelsang ketar armonim-a,/ Voy, jonim!" [7,194] kabi xalq qo'shiqlariga xos naqoratlardan uning musiqiyligini ta'minlashda, qizning sevgi armonlari ifodasini berishda ijodiy foydalangan.

Usmon Azim "Baxshiyona" turkumida xalq baxshilari leksikasida uchraydigan qolip so'zlar, epik formulalar, barqaror she'riy misralarni, xalq shevasiga xos so'zlarni qo'llash orqali dostonga xos uslubni stilizatsiya qiladi. Baxshiyonalarda

“mana bunday qo‘shiq aytgich edi”, “bir so‘z aytib turgan ekan”, “bir so‘z deb turgan ekan”, “bir so‘z aytib turgan ekan”, “javob berib turgan joyi ekan” kabi xalq dostonlariga xos qolip birikmalar orqali asardagi voqealar tasviri beriladi. “Baxshiyona”larda Usmon Azim “Boshingga shol ro‘mol tashlaysan”, “Har kim o‘z elida bekdir, to‘radir,” “Har kim o‘z elida davron suradir,” O‘stingda o‘ynaydi Boychibor, Ko‘zimda yoshlarim shashqator,” Men ko‘rganman osmonlarning tinig‘ini, Toshlar tegdi, terib oldim sinig‘ini”, “Tog‘ boshida yolg‘iz kiyik, Bo‘ri yo‘lin o‘tar quyib”, “Sarqamishning ko‘lida o‘sdi qamish”, “Bek yigitning mingani qora tulpor” kabi barqaror she‘riy misralardan asarda tasvirlangan voqelik ta‘sirida yuzaga kelgan kechinmalar tasvirini oydinlashtirishda hamda qofiya, ritmik qolip yaratishda ijodiy foydalanadi.

“Og‘a, endi Qo‘ng‘irotga dunyo **torma**, G‘anim uchun to‘y-tomosha, bizga **dorma?**”, “Yo‘ldan qoch, **bachchag‘ar**, kelin olib ketayapmiz”, “Tuya boqdim, tovonlarim **g‘ijja** tikan”, “Qarama deyma a, **juvonmarg**, **Jo‘g‘olib** bormoqda dunyolar”, “Mingqarchig‘ay shoir bir **farg‘onachi** qizni yaxshi ko‘rib qoldi”, “Qo‘ng‘irotning **jigitlari**” kabi misralarda xalq shevasiga xos leksik, fonetik vositalardan foydalanish orqali xalq dostonlariga xos tasvirlarni yaratishga erishadi. Usmon Azim xalqona tasavvurlari sintezi orqali, ishtiyoq, metafora, tashbeh kabi tasvir vositalari va ramzlardan, xalq qo‘shiqlari ritmi stilizatsiyasidan foydalangan holda ularni badiiy jihatdan puxta qilib yaratadi.

Xulosa

Usmon Azim ijodidagi “Baxshiyona” turkumi doston janri stilizatsiya asosida yaratilgan hamda vatan, uning ozodligi uchun kurashish, elning dardini kuylash kabi mavzular asosida shakllangan turli mustaqil qismlardan iborat. Ular alohida holda ham mustaqil mazmunga ega, biroq ular yaxlit holda ijodkor g‘oyaviy konsepsiyasiga xizmat qiluvchi bir mavzu asosida birlashtirilgan. “Baxshiyona” turkumi Asqartog‘, Boysun, Qo‘ng‘irot kabi makonlardagi va “bir yuz sakson yetti yil o‘tib”, “bundan yetti yuz o‘n sakkiz yil avval”, “o‘n uch asrcha avval”, “besh yuz ellik bir yil avval”, “ikki yuz ellik yil avval”gi zamondagi voqealar asosida shakllangan asarlardan tuzilgan hamda Elbek baxshi obrazi orqali birlashtirilgan universal badiiy yaxlitlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpomishning tilaklari. Shoir Usmon Azim bilan suhbat. // Yosh leninchi. 1986, 26-aprel.
2. <https://ziyouz.uz> > qorqut-ota Sobir Salim. Qahramonlik va donishmandlik kitobi.
3. Musaqulov A. Terma / O‘zbek folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988. –285 b.
4. Shukurov N. So‘z sehri – she’r mehri. – Samarqand: Zarafshon, 1992.
5. Suvonova J. Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy izlanishlar (Usmon Azim ijodi misolida). Filol. fanlari nomz. ... diss. – Toshkent, 2000.
6. Usmon Azim. Saylanma. She’rlar. – Toshkent: «Sharq», 1995. – 282 b.
7. Usmon Azim. Sog‘inch. She’rlar. –Toshkent:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 200 b.
8. Xoliqova D. Usmon Azim ijodida xalqona motivlar // O‘zbek tili va adabiyoti. 2009. – № 6. 71-74 betlar.